

I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT







Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyunida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 397,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 2,0 % ga o'sdi.




YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,8 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil yanvar- iyun	2021- yil yanvar- iyun	
	I. YAHM	16 655,7	18 397,7	102,0
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 818,3	17 828,0	102,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	837,4	569,7	98,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 818,3	17 828,0	102,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 846,0	6 929,4	103,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 916,1	4 864,7	95,9
	sanoat	4 019,6	3 788,0	93,5
	qurilish	896,5	1 076,7	106,7

		Mld. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil yanvar- iyun	2021- yil yanvar- iyun	
	Xizmatlar	5 056,2	6 033,9	106,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 049,1	1 271,3	108,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	832,0	1 040,4	112,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 175,1	3 722,2	104,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 746,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri darajasida saqlanib qoldi.












Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 38,9 % ni, sanoat tarmog‘i 21,2 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 33,9 % ni tashkil qildi.

<div>  Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi <i>(jamiga nisbatan % da)</i> </div>			
		2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning Yalpi qo‘shilgan qiymati	95,0	96,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,0	3,1
	II. Tarmoqlarning Yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	37,0	38,9
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	31,1	27,2
	sanoat	25,4	21,2
	qurilish	5,7	6,0
	Xizmatlar	31,9	33,9
	savdo, Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6,6	7,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,3	5,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	20,0	21,0




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil




2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi - 38,9 %), sanoatda - 93,5 % (21,2 %), qurilishda - 106,7 % (6,0 %), xizmatlar sohasida - 106,9 % ni (33,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,6 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,9 % dan (21,0 %) iborat bo'ldi.




**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida - 3,1 f.p.), qurilish tarmog'i - 0,4 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida - 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi - 2,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida - 0,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.




2021- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida - 114,7 % va qurilish tarmog'ida -112,5 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-iyun oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida - 65,9 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.